

MUSTAQILLIK YILLARIDA TIBBIYOT SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

Abdiganiyeva Sevinch Nuriddin qizi

SamDTU talabasi

[*abdiganiyevasevinch77@gmail.com*](mailto:abdiganiyevasevinch77@gmail.com)

Annotatsiya. Ushbu tezisda mustaqillikdan so'ng tibbiyot sohasida o'tkazilgan islohotlar, o'tgan yillar ichida poliklinikalarning sifat va sonlarida o'zgarishlar, davlat hisobidan ajratilgan mablag'lar va ularning amaliy natijalari, to'g'risida to'liq ma'lumotlar berilgan.

Kirish. Inson qadr-qimmati ulug'langan, manfaatlari ustuvor yurtda yuksalish va taraqqiyot bardavom bo'ladi. E'tiborlisi, mustaqillik yillarida mamlakatimizning barcha jabhalarida ijobiy o'zgarish va yangilanishlar kuzatilib, xalqimizning erkin va farovon yashashi, baxtli hayoti yo'lida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, bugun ona Vatanimiz haqida so'z ketganda "Yangi O'zbekiston" iborasi tez-tez tilga olinmoqdagi, bu istiqlol atalmish ulug' ne'mat tufayli keyingi yillarda muhtaram Prezidentimiz boshchiligida yurtimiz taraqqiyotining butunlay yangi bosqichiga qadam qo'ygani, erishayotgan zalvorli yutuqlari e'tirofidir.

Ma'lumki, bu yil mamlakatimiz mustaqilligiga roppa rosa 30 yil to'ladi. O'tayotgan har bir kun esa bizni ushbu qutlug' sanaga yana-da yaqinlashtirmoqda. Albatta, istiqlol ne'matining yurtdoshlarimizga bergan imkoniyatlari haqida uzoq gapirish mumkin. Xususan, so'nggi yillarda mamlakatimizda "Xalqimiz o'z hayotida ijobiy o'zgarishlarni ertaga emas, uzoq kelajakda emas, aynan bugun ko'rish kerak" degan ezgu tamoyil hayotimizning barcha jabhalariga to'la tatbiq etilib, ko'p sohalarda, jumladan, tibbiyot tizimida bir qator ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Ayniqsa, Prezidentimizning "...Tibbiyot xodimlari bizning salomatligimiz posbonlaridir. Ularga xalq ishonishi, ular esa xalqni ishontira olishi kerak" degan so'zlari sohadagi islohotlarni butunlay yangi bosqichga olib chiqdi.

Natijada keyingi to'rt yil ichida sog'liqni saqlash sohasini tubdan takomillashtirish, xalqimizga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, sog'lom avlod tarbiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanib, bu yo'lda misli ko'rilgan ishlar qilindi.

Ayniqsa, koronavirus kasalligi avj olgan pandemiya davrida mamlakatimiz tibbiyoti jiddiy sinovdan o'tib, ushbu xavfli xastalikka qarshi kurashish, uni aholi orasida keng tarqalishining oldini olish, xalqimizni ushbu balodan saqlash, salomatligini asrash borasida davlatimizning barcha imkoniyatlari ishga solindi.

Jumladan, ko'plab yangi shifoxonalar va karantin zonolari ishga tushirildi. Katta miqdorda qo'shimcha tibbiyot uskunalari va tez yordam mashinalari xarid qilindi.

Qolaversa, shunday murakkab davrda o'z hayotini garovga qo'yib, yurtimizda koronavirus pandemiyasi keng tarqalishining oldini olish, bemorlar hayotini asrash, ularga mehr va g'amxo'rlik ko'rsatish ishiga o'zining bilim va salohiyati, professional mahorati bilan munosib hissa qo'shgan 300 dan ziyod tibbiyot xodimlari davlatimizning faxriy unvon, orden va medallari bilan mukofotlangani soha xodimlari faoliyatiga berilgan yuksak bahodir.

Eng muhimi, bugun yurtimiz tibbiyotidagi ijobiy o'zgarish va yangilanishlarni mamlakatimizning har bir fuqarosi o'z hayotida, turmush tarzida chuqur his etmoqda.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti har bir mamlakat uchun shu yo'nalish bo'yicha rivojlanganlik darajasini belgilovchi mezonlarni ishlab chiqqan bo'lib, unga ko'ra, agar bola homiladorlikning 22 haftasida tug'ilib, vazni 500 gramm va undan ortiq, bo'yi 25 santimetr va undan ortiq bo'lsa, u tirik tug'ilgan hisoblanadi. Tabiiyki, qator davlatlar bu tavsiyalarni o'zlaridagi neonatologiya sohasining rivojiga qarab, turli yillarda qabul qilishdi. Taqqoslash uchun aytish kerak, ba'zi mamlakatlarda bu mezonlar 28 haftadan boshlab, bolaning vazni 1000 gramm, bo'yi 35 santimetr deb ham belgilangan. Shu sabab, O'zbekistonda bu mezonlarga o'tish uchun qabul qilingan davlat dasturlarida bir qator vazifalar belgilanib, hayotga tatbiq etildi.

Jumladan, homilador ayollar salomatligi doimiy nazoratda bo'lib, 200 ta ko'p tarmoqli markaziy poliklinikadagi perinatal tashxis xonalarida ularning 92,6 foizi homiladorlikning birinchi uch oyligida ultratovush tekshiruvidan o'tkazilmoqda. Joriy yil bu bo'yicha 100 foizlik natijaga erishiladi.

Shuningdek, yurtimizda bolalar salomatligini saqlashda pediatriyaning barcha yo'nalishlarida diagnostika, davolash, profilaktika va reabilitatsiya bo'yicha ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatishga mo'ljallangan 280 o'rinli Bolalar milliy tibbiyot markazi tashkil etildi. Nafaqat respublika, balki viloyat tibbiyot muassasalarida ham yuragida tug'ma nuqsoni bo'lgan bolalarni davolash uchun shifo o'rinlar soni 3 barobar oshirildi. Shu bilan birga, ayni paytda yuqori tibbiy texnologiyalar asosida yurtimizdagi 10 ta tibbiyot muassasasida bolalar kardiojarrohligi operatsiyalari o'tkazilmoqda.

Raqamlarga murojaat qilsak, 2016-yil 1 ming 447 ta kardiojarrohlik amaliyoti amalga oshirilgan bo'lsa, 2019-yil 2 ming 285 ta, 2020-yil esa 2 ming 315 ta ana shunday murakkab amaliyotlar muvaffaqiyatli bajarildi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda yurtimizda eshitishda nuqsoni bor va kar bolalarda koxlear implantatsiya operatsiyalari muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda. Birgina 2016-yilda "Neyrosensor kar yoki zaif eshitadigan bolalarda koxlear implantatlardan foydalangan holda operatsiyalar o'tkazish" bo'yicha 150 nafar bola qamrab olingan bo'lsa, 2018-yilda 239 nafar, 2019-yil 320 nafar, 2020-yilda esa

225 nafar zaif eshituvchi bemor bolalarda jarrohlik operatsiyalari amalga oshirilib, o'tgan davrda bu raqam 1000 nafardan oshdi.

Xulosa. Bir so'z bilan aytganda bugun tibbiyot tizimi xodimlari izlanishdan, tajriba va mahorat orttirishdan bir zum ham to'xtagani yo'q. Prezidentimiz boshchiligida tibbiyot tizimida olib borilayotgan islohotlar esa xalqimizni bugunidan rozi qilish, ertangi kunga bo'lgan ishonchini mustahkamlashdek ezgu maqsadga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti. 2021. 211- bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yangi O'zbekiston nashri.18.03.2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-iyun. PQ-3071-sonli qarori.
- 4.https://dunyo.info/uz/site/inner/o'zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirziyoyevning_sog'liqni_saqlash_sohasi_vakillari_bilan_ochiq_muloqot_shaklidagi_uchrashuvda_so'zlagan_nutqiaPh